

## DAVLAT XARIDLARI SOHASIDA KUZATILAYOTGAN HUQUQBUZARLIKLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR

Isoqov Otabek Erkinjon o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza

qilish akademiyasi magistratura tinglovchisi

Email: [otabekisoqov2001@gmail.com](mailto:otabekisoqov2001@gmail.com)

### Annotatsiya:

Mazkur maqolada davlat xaridlarining mamlakatimizda tutgan o‘rni, sohadagi qonunbuzilishlar holati, davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzishga oid statistikalar, davlat xaridlari sohasida ko‘p kuzatilayotgan huquqbuzarliklarning qisqacha sxemalari yoritilgan. Shuningdek, qonunbuzilishlar yuzasidan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan aniqlangan holatlar aniq misollar bilan keltirilgan bo‘lib, yakunda sohada mavjud muammolarni hal qilish yuzasidan muallifning subyektiv takliflari berilgan hamda qisqacha xorij tajribasi to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** davlat xaridlari, davlat xaridlarida qonunbuzilish va korrupsiyani oldini olish, “O‘zbekiston - 2030”, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar, huquqbuzarliklar sxemasi, xarid komissiyasi, tender, ochiqlik va shaffoflik, nohalol raqobat, xorij tajribasi

### Abstract:

This article describes the role of public procurement in our country, the state of violations in the field, statistics on violations of the legislation on public procurement, brief outlines of the most frequently observed violations in the field of public procurement. Also, the cases identified by the Anti-Corruption Agency and law enforcement agencies regarding violations of the law are given with specific examples, and at the end, the author's subjective suggestions for solving existing problems in the field are given, and the foreign experience is briefly discussed.

**Keywords:** public procurement, prevention of law violations and corruption in public procurement, "Uzbekistan - 2030", direct contracts, offense scheme,



procurement commission, tender, openness and transparency, unfair competition, foreign experience

**Аннотация:**

В данной статье описана роль государственных закупок в нашей стране, состояние нарушений в сфере, статистика нарушений законодательства о государственных закупках, краткое изложение наиболее часто встречающихся нарушений в сфере государственных закупок. Также с конкретными примерами приводятся выявленные Агентством по противодействию коррупции и правоохранительными органами случаи нарушений законодательства, а в конце приводятся субъективные предложения автора по решению существующих проблем в сфере, а также зарубежный опыт. кратко обсудили.

**Ключевые слова:** государственные закупки, предотвращение нарушений законодательства и коррупции в сфере государственных закупок, «Узбекистан – 2030», прямые контракты, схема правонарушений, закупочная комиссия, тендер, открытость и прозрачность, недобросовестная конкуренция, зарубежный опыт.

Keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida davlat xaridlari sohasini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi takomillashtirildi, davlat xaridlari ochiq-oshkoraligini ta'minlovchi va ularga doir ma'lumotlardan erkin foydalanish imkonini beruvchi elektron davlat xaridlari tizimi amaliyotga tatbiq etildi.

Shu bilan birga ilg'or xorijiy davlatlarning tajribasini o'rganish orqali davlat xaridlari sohasidagi xarid qilish tartib-taomillarini yanada takomillashtirish, davlat buyurtmachilari uchun qulay imkoniyatlar yaratish, davlat xaridlari jarayonlariga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish hamda ushbu jarayonlarda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashni yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Bu jarayonlar "O'zbekiston - 2030" strategiyasining 89-maqсадida o'z aksini topgan bo'lib, unga ko'ra mamlakatimiz 2030-yilga qadar davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish holatlarini 2 barobar kamaytirishga erishish hamda davlat xaridlarini to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish orqali amalga oshirishda mablag'larni talon-toraj qilish holatlari, tovar va xizmatlarning narxi



bozor qiymatidan oshib ketishining oldini olish bo'yicha jamoatchilik nazoratini to'laqonli joriy qilish vazifalarini belgilab oldi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan davlat xaridlarining ko'lamini tahlil qiladigan bo'lsak, Iqtisodiyot va Moliya vazirligining ma'lumotlariga ko'ra 2023-yil davomida mamlakatimizda 253 trln so'mlik davlat xaridlari amalga oshirilgan. Bu esa YAIMning 23,8 foizini tashkil qiladi. Shundan budget buyurtmachilarining xaridi 77 trln so'mni yoki 30 foizni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 10,6 foizga hamda davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan korxonalarining xaridi 176 trln so'mni yoki 70 foizni tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 30,7 foizga oshgan. Davlat buyurtmachilari tomonidan 115,0 trln so'mlik xaridlarni raqobatli tarzda amalga oshirish natijasida 8,2 trln so'm mablag'lar iqtisod qilinishiga erishilgan. Shuningdek, Davlat xaridlari tizimiga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish orqali sohada keng raqobat muhitini yaratish maqsadida tizimli ravishda amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2024-yil 1-yanvar holatiga kelib davlat xaridlari elektron tizimlarida 231 mingta tadbirkorlik subyektlari ro'yxatdan o'tgan. Bu esa, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12 foizga ya'ni 28 mingtaga oshgan<sup>1</sup>. Demak, o'tgan yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida tadbirkorlik subyektlarining davlat xaridlari jarayonlariga ishonchi ortgan. Davlat xaridlarida qancha ko'p tadbirkorlik subyektlari ishtirok etgani sayin raqobat muhiti o'sib, narxlarning me'yorlashishiga, tovar, ish, xizmatlarning sifatining oshishiga sabab bo'ladi.

Hozirgi kunda davlat xaridlarining eng og'riqli tarafi bu sohadagi huquqbuzarliklarning ko'p kuzatilayotganligi hisoblanadi. Davlat xaridlari nohalol mansabdorlar uchun davlat mablag'larini o'zlashtirishning keng tarqalgan turiga aylanib qoldi. Qonunchiligimizda davlat xaridlari sohasidagi qonunchilikni buzganligi uchun mansabdor shaxslarga Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 175<sup>8</sup>-moddasida ma'muriy javobgarlik belgilangan. Moddada qonunbuzilishning og'ir yengilligiga qarab BHM ning 5 baravaridan boshlab 30 baravarigacha miqdorda jarima jazolari belgilangan. Lekin ushbu modda faqatgina davlat organlari va tashkilotlaridagi mansabdor shaxslarning javobgarligi bilan cheklangan. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining ma'lumotlariga ko'ra

<sup>1</sup> <https://www.uzreport.news/society/2023-yil-davomida-jami-253-trln-so-mlik-davlat-xaridlari-amalga-oshirilgan>



mansabdor shaxslar tomonidan 2021-yilda 147 ta, 2022-yilda 662 ta va 2023-yilning 6 oyida 729 ta ma'muriy huquqbuzarliklar (MJTKning 1758-m) sodir etilgan<sup>2</sup>.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2022-yil davomida davlat xaridlarida budget mablag'larini talon-taroj qilish hamda boshqa korrupsiya ko'rinishlari bilan bog'liq jinoyatlarning olib borgan kompleks tahlillariga asosan huquqbuzarliklar asosan tender xarid savdolarida hujjatlarni soxtalashtirish, mahsulotlarni sun'iy qimmat narxlarda sotib olish, xarid qilingan mahsulotlarni kirim qilmaslik va ish, xizmatlarni bajarmaslik, qo'shib yozish yoki yetkazib bermaslik, tanlov o'tkazmasdan, tanlovda ishtirok etmagan buyurtmachiga aloqador korxonalarni g'olib deb topish yoki noqonuniy ravishda to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish orqali sodir etilgan<sup>3</sup>.

Public.sud.uz saytida joylashtirilib boriladigan 175<sup>8</sup>-modda bo'yicha ma'muriy qarorlarni tahlil qilganimizda shu ayon bo'ldiki, qonunbuzilishlar asosan quyidagi mexanizmlar asosida amalga oshirilmoqda

1. Buyurtmachi tender talablarida tovar (ishlar, xizmatlar)ning xususiyatlarini kerakli ishlab chiqaruvchi firmaning mahsulotiga moslab tavsiflaydi yoki tender talablarida faqat kerakli firmada mavjud malakalar alohida ko'rsatilishi mumkin. Bu esa potensial tender ishtirokchilar sonini kamaytiradi va o'ziga kerakli firmaning yutib chiqishiga zamin yaratadi.
2. Noxolis baholash. Bu komissiya tomonidan arizalarni ko'rib chiqishda ishtirokchilar tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirmasligi yoki baholash tartibida ko'zda tutilmagan takliflar uchun ham qo'shimcha ball berishda namoyon bo'ladi. Masalan, komissiya tomonidan baholash jarayonida ishtirokchilarning xarid predmetiga taalluqli bo'lmagan ko'rsatkich va yutuqlarini inobatga olish.
3. Keyingi kuzatiladigan sxema bu tender loyihasini bajarishga atayin juda kam muddat qo'yilishi.

Misol uchun, xaridor murakkab montaj ishlari uchun atigi bir kun ajratgan. Tabiiyki, ushbu ishlarni ancha oldin boshlagan yoki oldindan kelishib olgan firmagina tenderda g'olib chiqishi mumkin.

<sup>2</sup> <https://regulation.gov.uz/oz/d/95400>

<sup>3</sup> <https://anticorruption.uz/oz/article/davlat-xaridlari-sohasida-korrupsiyasiz-soha-loyihasini-amalga-oshirish-holati-togrisida>



Ko'pincha, bunday sxemada buyurtmani bajarish uchun noreal qisqa muddatlar belgilanadi. Natijada, insofli firmalar tender shartlarini bajara olmasligini tushunishadi va ishtirok etishdan bosh tortishadi. Keyin esa, tenderni haqiqiy deb topish uchun qo'g'irchoq firmalar tenderga jalb qilinib, kerakli firma g'olib chiqishi ta'minlanadi.

Hozirgi kunda davlat xaridlari sohasida quyidagi dolzarb bo'lib turgan muammolar mavjud.

Birinchidan, davlat xaridlarini amalga oshirishning eng yaxshi takliflarni tanlash va tender usullarida hali ham tanish-bilishchilik asosida ijrochilarni tanlash yoki manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yish holatlarining ko'p kuzatilayotganligidir.

Misol uchun «O'zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi» UK tomonidan boshlang'ich qiymati 4,8 mln dollarga teng bo'lgan telekommunikatsiya tarmoqlarining avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini yaratish bo'yicha o'tkazilgan tanlov savdolarida buyurtmachi tomonidan ayrim ishtirokchilarga tanlovda qatnashish uchun imtiyozli shart-sharoitlar yaratib berilgani aniqlangan. Bunda ishtirokchi tomonidan taqdim qilingan hujjatlar buyurtmachining talablariga mos kelmasa-da, g'olib deb e'tirof etilgan<sup>4</sup>.

Yana bir holatda, "Namangandonmahsulotlari" AJ buyurtmachiligida 2023 yil 27 yanvar kuni 224608-sonli lot bo'yicha o'tkazilgan 200,0 mln.so'mlik davlat xaridida O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunining 10, 14, 23 va 42-moddalari hamda "Raqobat to'g'risida"gi Qonun talablari buzilgan holda xaridda ishtirok etgan "T.A.", "A.L." va "S.A." MCHJlarning rahbari bir shaxs bo'lganligi holati yaqqol ko'rinib turgan bo'lsa-da, xarid komissiyasi tomonidan ushbu ishtirokchilarni chetlatish choralari ko'rilmagan<sup>5</sup>.

Ushbu qonunbuzilishining sodir etilish sabab va shart-sharoitlari tahlil qilinganida, xarid g'olibini aniqlash jarayonida manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va huquqbuzarliklar sodir qilishni oldini oluvchi mexanizmlarning samarali faoliyat yuritmayotganligi, shuningdek, davlat xaridlari ishtirokchilari va buyurtmachi tomonidan "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunning prinsiplariga rioya qilinmaganligi aniqlangan.

<sup>4</sup> <https://kun.uz/news/2023/09/28/raqobat-qomitasi-davlat-xaridlaridagi-bir-qancha-girromliklar-haqida-malumat-berdi>

<sup>5</sup> <https://aca.uz/oz/article/davlat-xaridlari-sohasida-qator-qonunbuzilishi-holatlari-aniqlandi>





Ikkinchidan, davlat xaridlari o'tkazishning eng yaxshi takliflarni tanlash va tender usullarida ishtirokchilar tomonidan berilgan takliflar va taqdim etilgan hujjatlar tashkilotning xarid komissiyasi tomonidan baholanadi. "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunning 20-moddasiga asosan xarid komissiyasi ishining asosiy maqsadi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo'yicha xolis baholashdan va tartibga solishdan hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g'olibni (g'oliblarni) tanlashdan iboratligi belgilangan. Shuningdek xarid komissiyasining vazifalaridan yana biri sifatida takliflarni baholash mezonlarini va usullarini belgilashi aytib o'tilgan. Bizning fikrimizcha, aynan shu holat ayrim savdolarida raqobat muhitiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan o'tkazilgan tekshirishlar natijasida shu ma'lum bo'lmoqdaki, ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar bir xil ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlar bo'lsada, ular turlicha baholangan.

Misol uchun, taqdim etilishi lozim bo'lgan hujjat sifatida ishtirokchining litsenziya ega ekanligi belgilangan, lekin baholash jarayonida A ishtirokchi bu mezon bo'yicha 10 ball olmoqda, B ishtirokchi esa 6 ball. Vaholanki, ikkala ishtirokchi ham bir xil toifadagi litsenziya hujjatiga ega. Ya'ni baholash mezonlari bo'yicha aniq nizom ishlab chiqilmaganligi sababli, shu holatlar kuzatilmoqda hamda bu holatlar halol raqobatni yo'qqa chiqarib, ayrim manfaatdor tadbirkorlik subyektlarining g'olib bo'lishiga olib kelmoqda.

Uchinchidan, Davlat xaridlari sohasida affillanganlik va manfaatlar to'qnashuvini, benefitsiar mulkdorni avtomatik ravishda aniqlashning imkoni mavjud emas. Affillanganlik va manfaatlar to'qnashuvi aniqlangan taqdirda shaxs o'zini-o'zi xaridda ishtirok etishdan chetlatishi lozim. Ko'p hollarda bunday affillanganlik va manfaatlar to'qnashuvi holatlari mavjud bo'lsa shaxsiy manfaatdorlik ustun kelib, shartnomalar tuzilgan holatlar ko'p kuzatilmoqda. Buning asosiy sababi sifatida mamlakatimizda kompaniya benefitsiarlarining (provardida mulk huquqlariga egalik qiladigan yoki tovarlar, ishlar, xizmatlar yetkazib beruvchini nazorat qiladigan jismoniy shaxs) reyestri yuritilmasligi va ochiq e'lon qilib borilmasligi ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Xolbuki, ayrim xorijiy mamlakatlarda (Daniya, Estoniya, Shotlandiya, Uels, Slovakiya, Shimoliy Irlandiya, Portugaliya, Norvegiya, Moldova, Litva, Kipr,



Islandiya, Gretsiya,) oxirgi benefitsiar mulkdorlar yagona davlat reyestri shakllantirilishi va barcha jamoatchilik uchun to‘liq ochiq bo‘lishi mazkur jarayonlarda jamoatchilik nazorati samaradorligini oshirish va korrupsiyani tiyib turishning muhim dastagi bo‘lgan<sup>6</sup>.

To‘rtinchidan, davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi uning shaffofligi va ochiqligini ta‘minlashga qaratilgan. Hozirda davlat xaridlarini tashkil etish va o‘tkazish jarayoni barcha uchun ochiq va shaffof tarzda o‘tkazilmoqda. Lekin, davlat xaridi o‘tkazilib, tugagandan so‘ng uning bajarilishi bilan bog‘liq jarayonlar davlat xaridlari platformalarida qisman yoritiladi va ma‘lum bir jamoatchilikning qismigagina ochiq ya‘ni uni qabul qilib olayotgan qismigagina xolos. Vakolatli organlar tomonidan tekshirishlar olib borilganda, shu ma‘lum bo‘lmoqdaki, ko‘plab holatlarda tovarlar sifatsiz, belgilangan miqdordan kam, muddatidan kech yetkazib berilgan. Shuningdek bajarilgan xizmatlar, ishlar talab darajasida emas, ishlar sifatsiz bajarilgan holatlar ko‘plab uchramoqda. Shu sababli, ishni bajarish jarayoni, tovarlarni qabul qilish jarayoni ham mavjud platformalar orqali jamoatchilik uchun yoritib berish dasturi ishlab chiqilishi, bu jarayonlar ham ochiq va shaffof bo‘lishi lozim degan fikrdamiz. Jamoatchilik oldida hisobdorlikni kuchaytirish lozim deb hisoblaymiz.

<sup>6</sup> Farhod Boyto‘rayev “Davlat xaridlarini amalga oshirishda korrupsiyaning oldini olishdagi muammolar va kamchiliklar” O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi Axborotnomasi №4 (52) 2022

